

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BERDAQ NOMIDAGI QORAQOLPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 338.368.1(575.172)**

ALLANAZAROVA BIBINAZ KEUNIMJAEVNA

**SUG‘URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.13 – Menejment**

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
prof. X.M.Shennayev

Nukus shahri – 2026 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	13
1.1. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini boshqarishning nazariy asoslari	13
1.2. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini boshqarish tamoyillari va uslublari	24
1.3. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorigini boshqarishning xususiyatlari	42
I bob bo'yicha xulosa	61
II BOB. SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY HOLATI VA TENDENSIYALARI TAHLILI	62
2.1. Sug'urta kompaniyalarining Qoraqalpog'iston Respublikasidagi hududiy bo'linmalari faoliyatini boshqarish tartibini tahlil qilish	62
2.2. Sug'urta kompaniyalari hududiy bo'linmalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning tahlili	72
2.3. Sug'urta kompaniyalarining Qoraqalpog'iston Respublikasidagi hududiy bo'linmalari moliyaviy barqarorligini boshqarish	84
II bob bo'yicha xulosa	92
III BOB. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	93
3.1. Sug'urta kompaniyalarining Qoraqalpog'iston Respublikasidagi bo'linmalari moliyaviy barqarorligini boshqarish muammolari	93
3.2. Sug'urta kompaniyalarining Qoraqalpog'iston Respublikasidagi hududiy bo'linmalari moliyaviy barqarorligini boshqarishni takomillashtirish istiqbollari	115
III bob bo'yicha xulosa	128
XULOSA	130
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	132

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlash va boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Zeʼro, sugʻurta sanoatining barqarorligi hamda sugʻurta mahsuloti isteʼmolchilarining manfaatlarini himoya qilish, aynan, sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishga chambarchas bogʻliq. Yevropa sugʻurta va mehnat pensiyalari boshqarmasi (EIOPA)ning Solvency II maʼlumotlar bazasiga koʻra, Yevropa iqtisodiy zonasida sugʻurta tashkilotlarining daromadlilik koeffitsiyenti 2022-yildagi 10 foizdan 2023-yilda 9 foizga qayta tiklangan. Biroq inflyatsiyaning oʻsish tendensiyalari hamda foyda olishga toʻsqinlik qiluvchi xarajatlar oshganligi sababli sugʻurta mahsulotlarining haqiqiy daromadlilikiga nisbatan xavf-xatar vujudga kelgan¹. Bu oʻz navbatida global miqyosda sugʻurtalovchilarning moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimini sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqishni taqoza qiladi.

Jahonda sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini samarali boshqarish, unga taʼsir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish hamda sugʻurta va qayta sugʻurta tashkilotlarining “umumiy toʻlov qobiliyati”ni miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari orqali baholash imkonini beradigan Solvency II riskka asoslangan yondashuvni joriy etish hamda hududlarda faoliyat yurituvchi sugʻurtalovchilarning moliyaviy barqarorligini oshirish borasida qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning tub mohiyati sugʻurtalovchilarning moliyaviy barqarorligini boshqarish formatini modernizatsiya qilish hamda unga taʼsir etuvchi omillarni zamonaviy empirik tahliliga qaratilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlar, xalqaro amaliyotda sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ishonchli va samarali boshqarish boʻyicha keng qamrovli tadqiqot ishlarini kuchaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

¹ Consumer Trends Report 2024. https://www.eiopa.europa.eu/publications/consumer-trends-report-2024_en, p 10.

O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va boshqarish, bu borada zamonaviy boshqaruv modellarini ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, sug‘urtalovchi va uning hududiy tuzilmalari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni optimallashtirish, “yuridik shaxslarning ko‘chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug‘urta qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, “Yashil sug‘urta” (Green insurance) mahsulotlarini joriy etish”² belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini samarali boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va sug‘urta mahsuloti iste‘molchilarining sug‘urta institutiga ishonchini oshirish dolzarb hisoblanadi. Bunda ilg‘or xorijiy tajribalarga tayanish va sug‘urta sohasidagi xalqaro tashkilotlarning uslubiy tavsiyalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2025-yil 23-maydagi PQ-191-son “Mamlakatimizda qayta sug‘urta tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-son “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 23-iyuldagi 458-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”, 2022-yil 5-dekabrdagi 694-son “Elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>